

O‘QITISHNI TALABALAR TOMONIDAN BAHOLASH (STUDENT EVALUATION OF TEACHING) TIZIMINI JORIY QILISH**Mamatmurodov Farrux Farxod o‘g‘li***Xususiy huquq fakulteti tyutori**Toshkent davlat yuridik universiteti**Email: mamatmurodovfirdavs@gmail.com**Tel: +998933005005*

Annotatsiya: SET (Student Evaluation of Teaching) – bu talabalarning o‘qitish jarayonini baholash tizimi bo‘lib, u ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada SETning ahamiyati, uning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari SET natijalarining obyektivligi va samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘qituvchilarning baholash jarayoniga bo‘lgan munosabati va undan foydalanish strategiyalari muhokama qilinadi.

Kalir so‘zlar: Student Evaluation of Teaching.

Hozirda xorijiy davlatlarning nufuzli universitetlari faoliyatidagi professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi munosabatalar sinchliklab tadqiq etilsa, talabalar ham universitetda o‘quv faoliyatini yaxshilash bo‘yicha faol jalb etishini guvohi bo‘lamiz. Misol uchun yevropa davlatlari universitetlarida professor-o‘qituvchilarining dars o‘tish sifatini yaxshilash bo‘yicha bevosita talabalar faoliyatiga tayaniladi. Bu metod nafaqat yevropa davlatlari universitetlarida, balki Xitoy va Yaponiyada ham keng qo‘llanilib kelinadi.

O‘qitish samaradorligini talabalar tomonidan baholash ko‘plab universitetlarda keng qo‘llaniladi va ularning sifat nazorati tizimining bir qismi sifatida qabul qilingan. Talabalar baholaridan olingan mazmunli ma’lumotlar universitetlar tomonidan o‘qituvchilarni baholash va ularning o‘qitish uslublarini kuzatish uchun ishlatiladi.

Talabalar o‘qishi, o‘qituvchilarning samaradorligi va kasbiy rivojlanishi uchun eng muhim resurslardan biri bu talabalar tomonidan berilgan fikr-mulohazalar va baholardir. “O‘qitishni talabalar tomonidan baholash” (SET) dan foydalangan holda o‘qituvchilarni baholaydigan muassasalar soni ko‘paygan sari, bu so‘rovnomalarning o‘qituvchilarning samaradorligi ko‘rsatkichi sifatida haqiqiyliги haqida savollar tobora ko‘proq qo‘yilmoqda. Bu adabiyotda tobora kuchayib borayotgan bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi, chunki talabalarning o‘qitishni baholashi o‘qituvchilarning lavozimga ko‘tarilishi va muddatli shartnomalar jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Amalga oshirilgan ko‘plab tadqiqotlarga ko‘ra talabalar o‘zlarining fikrlarini universitet tomonidan inobatga olinayotganligiga ishonishsa va his etsa, ular universitet faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarni bildirishlari

mumkin. Tadqiqotchi Robert D Renaud va Harry G. Murray o'zlarining "Ta'lim sifatining jarayon ko'rsatkichi sifatida yuqori darajadagi savollarning haqiqiyliigi" maqolasida talabalar tomonidan professor-o'qituvchilarga nisbatan bildirilgan baholar turli kurslar, yillar va baholovchilar guruhlar bo'yicha izchil bo'lganligini va ular haqiqiy va yetarli, ya'ni ular xolis va boshqa baholovchilar, masalan, hamkasblar tomonidan berilgan baholar bilan mos kelishini ta'kidlab o'tgan. Tadqiqotchilar SETning ahamiyatini ta'kidlab, o'qitishni talabalar tomonidan baholash butun dunyo bo'ylab tez tarqalayotganligini va uch sohaga ta'sir ko'rsatayotganini aytib o'tgan. Bular quyidagilardir:

- professor-o'qituvchilar kadrlari bo'yicha qarorlarga;
- o'qitish sifatini yaxshilashga;
- akademik standartlarga.

Ushbu tadqiqotchilar o'qitishni talabalar tomonidan baholash, ayniqsa yozma sharhlar, o'qituvchilarni baholash ma'lumotlarini ishonchliroq qilishini va o'qitish sifatini yaxshilashga hissa qo'shishini aniqlashgan. Talabalar tomonidan o'qituvchini baholash, ayniqsa baholash turli kurslar sharoitida qatnashgan ko'plab talabalarning fikrlarini aks ettirganda, o'qituvchining samaradorligini ishonchli va haqiqiy baholashni ta'minlashi aniqlangan. O'qituvchini qo'llab-quvvatlovchi baholash tizimida talabalarning fikrlari hisobga olinishi kerak degan fikrni qo'llab, J.Murdoch o'qituvchilarni baholash ko'pincha dasturlar va o'quv materiallarini qayta ko'rib chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish kabi masalalarga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini bildirib, bu tendentsiya ko'plab muassasalarda yomon baholashga olib keladi degan fikrni bildirgan.

Boshqa tomondan, SETning kamchiliklari ham o'rganilgan. Ulardan biri uning akademik ko'nikmalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi bo'lib, bu baholarni sun'iy oshirish va akademik standartlarning pasayishiga olib kelishi mumkin. Professor-o'qituvchilar talabalarning baholash natijalari kadrlar bo'yicha qarorlarga ta'sir qilishini bilganliklari sababli past baho qo'yishga ikkilanadi. Ular past baholar talabalarning o'qituvchilarga past reyting qo'yish orqali qasos olishiga olib kelishi mumkin deb hisoblaydi va o'qituvchilar bunga javoban baholarni oshirishlari mumkin. Bu jihatdan SETning kamchilik tomonlari ham mavjud va bu ushbu tizimning o'zini oqlamasligiga olib kelishi mumkin.

Henry Wigington, Nona Tollefson and Edme Rodriguez o'zlarining "Talabalarning o'qituvchilarni baholashi qayta ko'rib chiqish: Sinf va o'qituvchi o'zgarishi o'rtasidagi o'zaro aloqalar" nomli maqolasida ishtirok etgan o'qituvchilarning kamida uchdan biri baholash standartlari va kurs murakkabligini sezilarli darajada pasaytirganini qayd etgan. Shuningdek, bir tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalar o'qituvchilar odatda talabalarning dars berishni baholash natijalariga

e'tibor bermasliklariga ishonishlari, natijada esa ular o'z fikrlarini ochiq ifodalashdan voz kechishlari aniqlangan.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni umumlashtirib, McKeachie, W. J., va Svinicki o'zlarining "O'qitish bo'yicha tavsiyalari: Kollej va universitet o'qituvchilari uchun strategiyalar, tadqiqot va nazariya" maqolasida SETning to'rtta asosiy kamchiliklarini ko'rsatib o'tagan:

- talabalar o'z o'qituvchilari haqida xabardor va izchil qarorlar qabul qila olmaydilar;
- talabalar kurs tugaganidan ma'lum vaqt o'tmaguncha aniq baho bera olmaydilar;
- talabalarning baholari ularning bilim olish darajasi bilan teskari bog'liq;
- talabalarning baholari kursdagi kutilayotgan baholarga asoslanadi.

Talabalar tomonidan o'qitish samaradorligini baholash, shuningdek, ta'lim berish sifatini oshirish maqsadida ko'plab chet el oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning o'qitish sifatiga baho berilib boriladi. Ko'plab universitetlar o'qitish samaradorligini baholash tizimlarini joriy qilingan. Garchi talabalar baholarining o'qitish va kurs sifatiga ta'siri uning ishonchliligi va o'qitish samaradorligini o'lchashdagi haqiqatga yaqinligi munozarali bo'lsa-da, talabalar fikr-mulohazalarini o'qitish sifatini baholash uchun ishlatish mumkinligini ta'kidlash muhimdir. Ba'zi olimlar talabalar baholarini professor-o'qituvchilarning o'qitishini yaxshilash uchun boshqa ma'lumotlarga qaraganda ko'proq ishonchli va haqiqiy deb hisoblaydi. Universitetlar talabalar baholariga katta ahamiyat beradi. Bunga sabab sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

- Talabalarning fikr-mulohazalari muhim o'qituvchi baholash vositasi sifatida qaraladi. Sababi, bu o'qituvchilarga o'qitishlarini takomillashtirish imkoniyatini beradi;
- Universitetlar ularni kadrlar bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun ma'lumot manbai sifatida ishlatadi;
- Talabalar ularni o'qituvchilar va kurslarni tanlash bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun ma'lumot manbai sifatida foydalanadi;
- Talabalar baholari universitetlarning sifat nazorati tizimida katta ahamiyatga ega, chunki ular o'qitish samaradorligining yaxshi ko'rsatkichlari hisoblanadi;
- So'rovnomalar talabalarning o'qituvchilar va ularning o'qitish uslublari bilan qoniqishini o'lchash uchun foydali ma'lumotlarni taqdim etadi.

Talabalar baholari o'qitish samaradorligini baholashning samarali vositalaridir va quyidagilarni ta'minlashi mumkin:

- universitetda o'qitish sifatini yaxshilash uchun shakllantiruvchi fikr-mulohazalar;

- lavozimga ko'tarilish bo'yicha qarorlar uchun o'qitish samaradorligini baholash;

- talabalarga kurs va o'qituvchi tanlash bo'yicha ma'lumot berish;

Talabalar baholashlari ikki asosiy maqsadga xizmat qiladi. Chen va Hoshowerning "Talabalarining Qarashlari: Oliy Ta'limda Talabalar Fikri Onlayn (SuFO)" maqolasida ular quyidagilarni belgilab o'tgan:

- ularning shakllantiruvchi maqsadda ishlatilishi o'qituvchilarga o'qitish samaradorligi va darslarni yetkazishni yaxshilash bo'yicha fikr beradi;

- ularning yig'ma maqsadda ishlatilishi ma'muriyatga o'qituvchilar yoki kurslar haqida qarorlar qabul qilish uchun ma'lumot beradi.

Talabalar so'rovnomalarining o'qitish samaradorligini yaxshilashdagi foydaliligi haqida keng rivojlangan adabiyotlar mavjud. J.Uilsonning "Nisbiylik va o'qitish" to'g'risidagi maqolasida universitetlar o'qituvchilarning lavozimga ko'tarilishi, maoshi va shartnomalari haqida qarorlar qabul qilish uchun sifatli ma'lumotlarga muhtojligi, talabalar baholarining o'qitish samaradorligiga qo'shgan hissasini o'rgangan va unda to'g'ri tuzilgan talabalar so'rovnomalarini o'qituvchilarning o'qitish samaradorligini o'lchash vositasi sifatida ishlatish mumkinligini ta'kidlash muhimligi alohida ta'kidlangan. Shunga qaramay, talabalar universitet faoliyati haqida barcha jihatlaridan to'liq baho bera olmasligini yodda tutish kerak. Masalan, agar talabalardan o'qituvchilarning fan bilimi haqida fikr so'ralsa, ular to'g'ri baho bera olishlari mumkin emas, chunki ularning tajribasi bunday hollarda qimmatli ma'lumot berish uchun etarli bo'lmasligi mumkin. Hozirgi tadqiqot oliy ta'lim muassasasida o'qitish sifatini yaxshilashda talabalar baholarining rolini o'rganishga qaratilgan.

2023-yil 22-fevral kuni Toshkent davlat yuridik universitetida bo'lib o'tgan **"Problem-based learning"** bo'yicha seminarda Buyuk Britaniyalik xalqaro ekspert, yuridik fanlari doktori, professor **Richard Grimes** tomonidan ham ushbu metodga alohida to'xtalib, yevro davlatlari universitetlarida keng qo'llanilishi aytib o'tildi.

Toshkent davlat yuridik universitetida ta'lim sifatini yanada yaxshilash, professor-o'qituvchilarning dars o'tish metodikasini takomillashtirish, o'quv jarayonida shaffoflikni ta'minlash, talabalarni ta'lim jarayonida faolligini oshirish maqsadida SET metodikasini bosqichma-bosqich joriy etish taklif qilinadi.

Yuqoridagi tadqiqotlarga asoslanib, SETning mahalliy universitetlarda ishlash tizimini quyidagi tartibda amalga oshirish mumkin. Ushbu misol Toshkent davlat yuridik universiteti misolida yozilgan.

Bu metodga ko'ra talabalar o'zlariga dars mashg'ulotlari o'tgan professor-o'qituvchilarning dars o'tish sifati bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini berib boradi. Bunda, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan yilda ikki marotaba har o'quv yilining so'ngida so'rovnoma yoki talabalardan fikr-mulohazalarini bilib olishning

qulay usulida yig'ib olinadi. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi Talabalar assotsiatsiyasi¹ bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Har bir fakultetda kurslar kesimida GPA eng yuqori 10 nafar talabalar o'z kursida dars mashg'ulotlari o'tgani professor-o'qituvchilar bo'yicha talabalarning fikr-mulohazalarini o'qituvchilar kesimida umumiyashtiradi. Har bir fakultetdan barcha fikr-mulohazalarni Talabalar assotsiatsiyasi umumiyashtirib, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limiga taqdim etadi. Ushbu bo'lim o'qituvchilar kesimida talabalarning fikr-mulohazalarini umumiyashtiradi va o'qituvchilar shu asosda 1 dan 10 gacha bo'lgan shkalada kategoriyalarga bo'lib chiqiladi. Har bir kategoriya bo'yicha Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi, O'quv uslubiy boshqarma (Registrator ofis) va Transformatsiya bo'limi² hamkorlikda professor-o'qituvchilarning dars o'tish metodikasini yaxshilash yuzasidan maxsus tavsiyalar ishlab chiqadi. Bu tavsiyalar har o'quv yilining boshida umumiy e'lon qilib boriladi. Ushbu metod professor-o'qituvchilarga nisbatan biror-bir ta'sir chorasi yoki maxsus rag'batlantirishni o'zida aks ettirmaydi. Bu shunchaki talabalar tomonidan aytib o'tilgan fikr-mulohazalar asosida tayyorlangan maxsus tavsiyalar bo'ladi.

Ushbu metod joriy etilsa, quyidagi ijobiy natijalar olinadi:

- Talabalar tomonidan berilgan fikr-mulohazalar va bu asosda tayyorlangan maxsus tavsiyalar professor-o'qituvchilarning dars o'tish metodikasi sifatini o'zlariga aniq ko'rsatib beradi va bu yetarli darajada sifatli dars o'tmayotgan professor-o'qituvchilarning o'z metodikasi ijobiy tarafga o'zgartirishiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi;
- Universitetga ushbu malumotlarni kelgusida o'z faoliyati jarayonida asosiy ma'lumotlar bazasi sifatida foydalanish imkonini beradi;
- Talabalar bu ma'lumotlar asosida kelgusida fanlarni tanlash yoki o'zi uchun leksiya yoki seminar o'qituvchisini tanlashda saralab olish uchun ma'lumot manbai sifatida foydalanadi;
- Universitet sifatini ta'minlash tizimida talabalarning fikr-mulohazasiga katta ahamiyat beriladi, chunki ular o'qitish samaradorligining yaxshi ko'rsatkichlari hisoblanadi;
- So'rovnomalar talabalarning o'qituvchilardan qay darajada darslaridan mamnun ekanliklarini o'lchash uchun foydali ma'lumotlarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

¹ Bu bo'lim har bir universitetlarda turlicha nomlanishi mumkin. Uning vazifasi universitet talabalari uyushmasi sifatida talabalarni uyushtirish, ularni qiynayotgan muammolarni aniqlash va tizimli tahlil qilgan holda yechim berish va boshqa shu kabi vazifalardan iborat bo'ladi.

² Toshkent davlat yuridik universiteti tashkil etilgan xalqaro standartlar asosida o'qishni tashkil etishga mo'ljallangan boshqarma.

1. Abrami, P.C. (1989). How should we use student ratings to evaluate teaching? *Research in Higher Education*, 30 (2), 221–227.
2. Chen, Y., & Hoshower, L.B. (2003). Student Evaluation of Teaching Effectiveness: An assessment of student perc
3. Marsh, H. W. (1984) Students' evaluations of university teaching: dimensionality, reliability, validity, potential biases, and utility. *Journal of Educational Psychology*, 76 (5), 707– 754.
4. Wilson, R.C. (1986). Improving faculty teaching: effective use of student evaluations and consultants. *Journal of Higher Education*, 57 (2), 196–211.
5. Arreola, R. A. (2007). Developing a comprehensive faculty evaluation system: A guide to designing, building, and operating large-scale faculty evaluation systems (3rd Ed.). Bolton, MA: Anker.
6. Eley, M., & Stecher, E. (1997). A comparison of two response scale formats used in teaching evaluation questionnaires. *Assessment and Evaluation in Higher Education*, 22(1), 65-70.
7. Franklin, J., & Theall, M. (1989). Who reads ratings: Knowledge, attitudes, and practices of users of student ratings of instruction. Paper presented at the annual meeting of the American Edu.